9

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori
_____________ K.Urinbayev
2025 yil "29" 08

*Ro'yxatga olindi: № BD 60211300-1.25*

# XOR MUSIQASI TARIXI

## FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** *200 000 — San'at va gumanitar fanlar*

**Ta'lim sohasi:** *210 000 — San'at*

**Ta'lim yo'nalishi:** *60211300 — Dirijyorlik: akademik xor dirijyorligi*

**TOSHKENT – 2025**

CS CamScanner yordamida skanerlangan

| Fan/modul kodi<br>XMT1306 | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>5-7 | ECTS – Kreditlar<br>6 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>2 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **"Xor musiqasi tarixi"** | **90** | **90** | **180** |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**"Xor musiqasi tarixi"** asosiy fanning maqsadi — xor dirijyorlari tayyorlash o'quv jarayonida xormeysterlarning malakasini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan maxsus fandir. Dastur bayon etilgan turli tarixiy davr bastakorlarining xor ijodini o'rganishiga asoslangan. Talabalarning turli milliy bastakorlik maktablari bilan tanishuvi ularni badiiy tomondan tarbiyalab, ixtisosligi bo'yicha bilimlarini boyitadi. Oliy o'quv bilim yurti dasturi ma'lum musiqiy matoning aniq va chuqur o'rganishi bilan farq qiladi. Bu fan ta'limning asosiy shakli bo'lib, o'ziga xor xatining turlari va ahamiyatli joylari, bastakorlar ijodiga tegishli savollar majmuini oluvchi ma'ruzalar kiradi.

Fanning vazifasi — fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar — talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Ushbu fanni chuqur o'rganmoqlik uchun, asosiy diqqatni xor san'atining negiziga, uning ma'naviy tomonlariga qaratishga jamlamoq kerak. Talabalar xor maktabini rivojlanish davrlari, turli yo'nalishlarda xorning shakllanishi, turli davlatlarda rivojlanib borayotgan xor janrlarining o'rni va ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Nazariy va amaliy taraf jihatlari bilan bir qatorda, talabalarning quyidagi mustaqil ishlari ko'zda tutiladi: maxsus adabiyotlar o'qish, asarlar tinglash, tinglangan asarlarni vokal-xor va ijrochilik tahlili va hokazo.

**II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlar)**
**Xor musiqasi tarixi fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi**

## I BO'LIM. G'ARBIY YEVROPADA XOR MADANIYATINING TARIXIY SHAKLLANISH BOSQICHLARI.

### 1-mavzu: Antik davr musiqasi tarixi.

Sharq va G'arb xor qo'shiqchiligining ilk paydo bo'lishi. Yunon fojia drama ko'rinishlari shakllari. Rim imperiyasi musiqiy ravnaqi va so'nishi. Grigorian xorali. Ilk cherkov professional xor qo'shiqchiligi rivoji.

**2-mavzu: XIV-XVI asrlar xor musiqasi.**

Uyg‘onish davri vokal polifoniyasi (XIV-XVI asrlar) Polifoniyaning italyan xor maktabi. Xor polifoniyasining franko-flamand (Niderland) maktabi. Polifoniyachilarning nemis maktabi. Reformatsiya sur’atining xor musiqasiga ta’siri.

**3-mavzu: Barokko davri xor madaniyati shakllanish bosqichlari. Kantata, oratoriya, passion, motetlarning o‘ziga xos yozilish xususiyatlari.**

Polifoniyachilarning nemis maktabi, barokko didi qirralari. I.Bax, G.Gendel xor musiqasi. Yangi musiqiy janrlarning vujudga kelishi. Kantata, oratoriya – XVI-XVII asrlar tegrasida hosil bo‘lgan ma’naviy muloqotning alohida turi. I.S.Bax passionlari.

**4-mavzu: Klassitsizm xor madaniyati.**

Klassitsizm davri xor musiqasi. Yevropa madaniyatining ma’naviyati va klassitsizm davrida xor janrlarining o‘rni va ahamiyati. XVII-XVIII asrlar oxirida musiqada xor shakllari. Fransuz demokratiya maktabi. Vena klassik maktabi. Yevropa milliy kompozitorlik maktablarining farqli tomonlari. Klassik kompozitorlar ijodida xor jarangdorligi va xor kuyini sonli va sifatli simfoniyalashtirilishi V.A.Motsart, Y.Gaydn, L.van Betxoven xor san’ati. Janrlarning uslubiy tahlili.

**5-mavzu: Romantizm xor madaniyati.**

Xor janrlarining romantik estetikasiga tegishli qirralarini o‘ziga xos tarzda ro‘yobga chiqishi. Xalq qo‘shiqlarini qayta ishlash, jo‘rsiz xor uchun original miniatyuralar, romantik kompozitorlarning vokal-simfonik asarlari. Davriy farqliklar. Janrlar tavsifi. Jo‘rsiz xor asarlarda yangicha talqin.

**6-mavzu: XVII-XIX asrlardagi chet el kompozitorlarning opera xor ijodi.**

XVП-XIX asrlardagi atoqli kompozitorlarning opera-xor ijodi. XVП-XIX asrlardagi kompozitorlarning operalaridagi xor sahnalarni ahamiyati. K.M.Veber, Dj.Verdi, Sh.Guno, R. Vagner, B. Smetana, J.Bize va b. operalaridagi xorlar.

**II BO‘LIM. RUS XOR MAKTABI (X- XX asr boshlari)**

**7-mavzu: Rus kompozitorlik maktabining vujudga kelishi. XVII –XVIII asrlarda rus xor madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi.**

Rus xor uslubining vujudga kelishi. Professional xor ijrochiligining shakllanishi. Rus xor konsertini shakllanish va rivojlanishi. Rus kompozitorlar ijodida diniy xor konsert. Partesli konsert. Psalmlar va kantlar. Ko‘povozlilikning yangi shakllari.

**8-mavzu: XIX- XX asr rus kompozitorlarning ijodida kichik shakldagi xorlar.**

Xor miniatyurasi janrining rivojlanishida rus sheriyatining oʻrni. A.Dargomijskiy, P.Chaykovskiy, V.Kalinnikov, S.Taneyev, A.Grechaninov, P.Chesnokov xor ijodi.

**9-mavzu: XIX- XX asrlar boshlaridagi Rossiyada kantata-oratorial janr rivojining oʻziga xosligi.**

XIX- XX asrlar boshlaridagi rus kompozitorlar ijodida kantata janridagi olqishlash va balladalik turliligi. P.Chaykovskiy, N.Rimskiy-Korsakov, S.Taneyev, S.Raxmaninov ijodida rus kantatalarni kompozitsion xilma-xilligi. XX asrning birinchi yarmidagi rus kompozitorlarning kantata-oratorial ijodida tarixiy mavzu.

**10-mavzu: XIX- XX asrlar boshlaridagi rus kompozitorlarning opera-xor ijodi.**

M.Glinkaning opera-xor ijodi. Uning operalaridagi xorlarining musiqiy dramaturgiyasidagi xizmati. Xorlarni tarkiblar jihatidan, shakllar, metr, xor yozuvini usullar turliligi. Rus kompozitorlarning opera-xor ijodida M.Glinka asos solgan an'analarini davom etish va rivojlanish. A.Dargomijskiy opera-xor ijodi. Rus operalarida milliy xususiyatlar. M.Musorgskiy, N.Rimskiy-Korsakovning operalaridagi xor sahnalarini ahamiyati. A.Borodin, P.Chaykovskiyning opera –xor ijodi.

## III BOʻLIM. XX ASR XOR MUSIQASINING JANRIDAGI YANGI OQIMLAR VA YOʻNALISHLAR

**11-mavzu: XX asr Yevropa xor musiqasi. XX asr chet el kompozitorlarning turkumli xor-cholgʻu janrlar.**

Yangi davr kompozitorlarining san'ati. Mavzuiy xilma-xillik. Musiqiy tilning keskinlashuvi. Dissonanslikning kuchayishi. XX asr Gʻarbiy Yevropa musiqasining tahlili: fransuz "Oltiligi", impressionizm, modernizm, ekspressionizm, neoklassitsizm.

XX asr chet el kompozitorlarning ijodida kantata va oratoriya janri. XX asr Gʻarbiy Yevropa musiqasida messa janri. XX asr chet el kompozitorlarning ijodida Rekviyem. XX asr kompozitorlarning turkumli xor-cholgʻu musiqasida milliy an'analarini davom etish va rivojlanish. B.Bartok, K.Orf, F.Pulenk, B.Britten, A.Onegger ijodi.

**12-mavzu: XX asr chet el kompozitorlarning opera-xor ijodi.**

Opera-xor san'atini yanadagi rivoji. XX asrning atoqli kompozitorlarning opera-xor ijodi. XX asr Gʻarbiy Yevropa kompozitorlarning opera ijodida xor sahnalarining ahamiyati. Yetakchi kompozitorlarning musiqiy tilining an'anaviy va novatorlik xususiyatlarni birikmasi.

**13-mavzu: XX asr rus musiqasida kantata-oratorial janrining evolyutsiyasi**

XX asr boshlarida rus kompozitorlarning kantata-oratorial ijodidagi tarixiy mavzu. Yetakchi kompozitorlarning musiqiy tilining an'anaviy va novatorlik xususiyatlarni birikmasi. S.Prokofyev, D.Shostakovich, G.Sviridov, V.Salmanov, S.Slonimskiy ijodi.

**14-mavzu: XX asr rus musiqasida xor a kapella janri. "Yangi folklor to'lqini" kompozitorlarning uslub xususiyatlari. Zamonaviy rus musiqasida xor konsert janri.**

D.Shostakovich, R.Shyedrin, Yu.Falik, S.Slonimskiy ijodi. Yangi yo'nalishning shakllanishidagi G Sviridovning xor ijodining xizmati. V.Gavrilin xor ijodida yangi janrlar. N.Sidelnikov va Yu.Butsko xor asarlarida folklor. Ijtimoiy ahamiyatli mavzular va siymolarni shakl sifatida yoritilishi xor konsertlarni o'rnini ko'tara oladi. Xor konsertlarni yangi janrlar turlarini paydo bo'lishi. Xilma-xil intonatsion manbalar, xor ifodaviyligini yangi vositalari: xor deklamatsiyasi, gapirish, shivirlash, glissando va h.k.. Solo cholg'usini kiritish tufayli xor tovushini tembral boyitib berish

**15-mavzu: XX asr rus kompozitorlarning opera-xor ijodi.**

XX asr rus kompozitorlarning opera-xor ijodida an'ana va novatorlik. XX asr kompozitorlarning opera ijodiga o'ziga xos — fojiaviy, janr va grotesk xor sahnalari borligi. S.Prokofyev, D.Shostakovich, S.Slonimskiy, R.Shyedrin operalaridagi xor sahnalarini ahamiyati.

**Xor musiqasi tarixi fanidan** seminar mashg'ulotlar o'quv rejada ko'rsatilgan turi bo'yicha o'tkaziladi.

**Seminar mashg'ulotlar** uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Antik davr musiqasi tarixi.
2. XIV-XVI asrlar xor musiqasi.
3. Barokko davri xor madaniyati shakllanish bosqichlari. Kantata, oratoriya, passion, motetlarning o'ziga xos yozilish xususiyatlari.
4. Klassitsizm xor madaniyati.
5. Romantizm xor madaniyati.
6. XVII-XIX asrlardagi chet el kompozitorlarning opera xor ijodi.
7. Rus kompozitorlik maktabining vujudga kelishi. XVII –XVIII asrlarda rus xor madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi.
8. XIX- XX asr rus kompozitorlarning ijodida kichik shakldagi xorlar.
9. XIX — XX asrlar boshlaridagi Rossiyada kantata-oratorial janr rivojining o'ziga xosligi.
10. XIX- XX asrlar boshlaridagi rus kompozitorlarning opera-xor ijodi.

11. XX asr Yevropa xor musiqasi. XX asr chet el kompozitorlarning turkumli xor-cholg'u janrlar.
12. XX asr chet el kompozitorlarning opera-xor ijodi.
13. XX asr rus musiqasida kantata-oratorial janrining evolyutsiyasi
14. XX asr rus musiqasida xor a kapella janri."Yangi folklor to'lqini" kompozitorlarning uslub xususiyatlari. Zamonaviy rus musiqasida xor konsert janri
15. XX asr rus kompozitorlarning opera-xor ijodi.

## III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (diskussiyalar, seminarlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot – ta'lim resurslaridan, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish.
2. Kurs bo'yicha asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlarni o'rganish.
3. Xor musiqasi janrlari va asosiy yo'nalishlarini chuqur o'rganish.
4. O'tgan va hozirgi zamon yetuk kompozitorlar xor ijodini tahlil qilish, xor yozuvi usullari va kompozitorlik uslubini vokal-xor xususiyatlari.
5. O'tilgan mavzu bo'yicha audio va video materiallarni eshitish va ko'rib chiqish.

3.

## V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetenetsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba**:**

- musiqa san'atining tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari, musiqa tarixini davriylashtirish;
- har bir tarixiy davrning uslublari, janr tizimining xususiyatlari;

| | |
|---|---|
| | • chet el musiqa tarixining oʻrganilgan har bir davri uchun asosiy uslubiy adabiyotlar ***haqida bilishi kerak;***<br>• musiqiy asarni tarixiy, badiiy va ijtimoiy-madaniy jarayon dinamikasida koʻrib chiqish;<br>• maʼlum bir davrning badiiy yoʻnalishlari kontekstida musiqiy asarning janr-uslub xususiyatlarini, uning dramaturgiyasi va shaklini aniqlash;<br>• barcha musiqiy davrlar vokal-xor musiqasidagi janrlar va ular orasidagi farqni dirijyorlik jarayonida toʻgʻri interpretatsiya (talqin) qila olish ***koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak;***<br>• turli davrlardagi musiqiy asarlarni ajratib turadigan faktura xususiyatlar va tembr texnikasini aniqlash;<br>• oʻquv jarayonida musiqashunoslik adabiyotidan foydalanish koʻnikmalari;<br>• musiqiy asarlar va voqealarni tanqidiy tahlil qilish usullari va koʻnikmalari ***malakalariga ega boʻlishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari:**<br>• maʼruzalar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob);<br>• interfaol "Keys-stadi" texnologiyasi;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• jamoa boʻlib ishlash. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Mavzuga oid nazariy va amaliy tushunchalarni toʻliq bilish, tahlil natijalarini aniq aks ettirish, oʻrganilayotgan jarayonlar va kurslarni mustaqil ravishda kuzatish. Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ogʻzaki orqali oʻtkazilishi mumkin.<br>**Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar .**<br>Talabalar bilimini nazorat qilish oʻquv rejaga muvofiq belgilangan.<br>Oraliq nazorat 5,6,7 semestrlarda, Yakuniy nazorat 5,6,7 semestrlarda oʻtkaziladi.<br>- Oraliq nazorati semestr davomida fan dasturining tegishli boʻlimi yakunlangandan soʻng, talabalarning nazariy bilim va koʻnikmalarini baholash maqsadida oʻquv mashgʻulotlari davomida oʻtkaziladi.<br>- Yakuniy nazorat turi semestr yakunida, semestr davomida oʻtilgan barcha mavzularni qamrab olib, talabalarning nazariy bilim va koʻnikmalarini oʻzlashtirish darajasini baholash maqsadida 3 ta savoldan iborat bilet tortish nazorati oʻtkaziladi. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. A.Xakimova "Xor fakturasi evolyutsiyasi", T.2023<br>2. Ю. В. Булавинцева. Западноевропейская хоровая музыка. Возрождение. |

| | |
|---|---|
| | Барокко. Классицизм. — 3-е изд., стер. — Санкт-Петербург : Лань: Планета музыки, 2020.<br>3. В.Ильин. Очерки русской хоровой культуры. Вторая половина XXI- начало XX века. Издательство «Композитор • Санкт-Петербург» 2007<br>4. Твердохлебова И. Из истории хоровой музыки XX века. Т., "Музыка" 2007.<br>5. Гулеско И. Хоровая литература. Х., 1991<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60. 28.01. 2022<br>2. Sh.M.Mirziyoyev. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-4730 26.05. 2020<br>3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PQ-4038 28.11. 2018<br>4. Штенникова Е.Г. История хорового творчества. Ижевск 2011 (учебно-методическое пособие)<br>5. Т.Ливанова "История западно –европейской музыки".М.1983.<br>6. В.Галатская "Музыкальная литература зарубежных стран".М.1985.<br>7. А.Григорьева "Музыка России" Вып.1-9.М.1980-1992<br>8. История советской музыкальной литературы / Под ред. Р. Леденева. Вып.1,2. М., 1974.<br>9. Попов С. Очерки по русской хоровой литературе. Вып. 1,2. М., 1965.<br>10. Грубер Г. История зарубежной музыки. Т., 1,2. М., 1962.<br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.ziyonet.uz<br>2. http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa<br>3. www musika uz<br>4. http://www.classic-online.ru<br>5. http://www.disserr.ru<br>6. http://nlib.org.ua/parts/books.html<br>7. http://music.edu.ru<br>8. http://www.kultura.uz |
| 7. | **Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» 08 dagi 1 — sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.** |
| 8 | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>N.A.Baxritdinova - O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasi professori<br>G.Sh.Avxadiyeva — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| 9 | **Taqrizchilar:** |

| | |
|---|---|
| | L.X.Djumayeva — O‘zDK, “Akademik xor dirijyorligi” kafedrasi professori<br>S.S.Malikova — Pedagogika fanlari nomzodi, O‘zDSMIning dotsenti |